Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashev Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	



O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLAR TAHLILI

Djalilov Dostonbek Abduazizovich

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti Loyiha rahbari

Email: djalilov.dostonbek@mail.ru

ORCID: 0000-0001-8151-9688

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotida yalpi omillar samaradorligi hamda uning dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar empirik jihatdan tahlil qilindi. Yalpi omillar samaradorligini faollashtiruvchi asosiy omillar sifatida iqtisodiy erkinlik indeksi, investitsion faollik, bandlik ko'rsatkichlari va texnologik omillar qamrab olindi. Ushbu omillarning yalpi omillar samaradorligiga ta'sirini baholashda to'liq mukammallashtirilgan oddiy eng kichik kvadratlar usuli qo'llanildi. Tadqiqotda aniqlangan natijalarga ko'ra, yalpi omillar samaradorligini faollashtirishda institutsional omillardan iqtisodiy erkinlik darajasining ta'siri nisbatan yuqori ekanini ko'rsatdi. Xususan, iqtisodiy erkinlik indeksining 1 ballga oshishi yalpi omillar samaradorligini o'rtacha 0,8 foizga oshirib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: yalpi omillar samaradorligi, iqtisodiy erkinlik indeksi, iqtisodiy o'sish, investitsiyalar.

Abstract. This study empirically examines total factor productivity (TFP) in Uzbekistan's economy and the determinants shaping its dynamics. The key drivers of TFP considered include the economic freedom index, investment activity, employment indicators, and technological factors. To estimate the impact of these factors on TFP, the Fully Modified Ordinary Least Squares (FMOLS) method is employed. The results indicate that, among institutional factors, the level of economic freedom has a relatively strong influence on TFP. In particular, a one-point increase in the economic freedom index is found to raise TFP by an average of 0.8%, thereby accelerating economic growth.

Key words: total factor productivity, economic freedom index, economic growth, investment.

Аннотация. В данном исследовании эмпирически проанализированы совокупная факторная производительность (TFP) в экономике Узбекистана и факторы, влияющие на её динамику. В качестве ключевых детерминант TFP рассмотрены индекс экономической свободы, инвестиционная активность, показатели занятости и технологические факторы. Для оценки влияния указанных факторов на TFP применён метод полностью модифицированных наименьших квадратов (FMOLS). Полученные результаты показывают, что среди институциональных факторов относительно более значимым является уровень экономической свободы. В частности, установлено, что увеличение индекса экономической свободы на 1 балл повышает TFP в среднем на 0,8% и тем самым ускоряет темпы экономического роста.

Ключевые слова: совокупная факторная производительность, индекс экономической свободы, экономический рост, инвестиции.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi farovonligini oshirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishga o'tish ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

2017–2024-yillarda iqtisodiy o'sishni faollashtirish va iqtisodiyotga yangi texnika hamda texnologiyalarni jalb qilish maqsadida iqtisodiyotga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Jumladan, 2017-yilda iqtisodiyotga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 19,4 foizga oshgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 31,3 foizgacha tezlashdi. Bu esa iqtisodiy o'sishning jadallashishiga olib kelib, iqtisodiyotda kapitalning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi 2017-yildagi 3,3 foiz banddan 4,5 foiz bandga yetdi. Mazkur davr oralig'ida esa iqtisodiyotning yangi texnologiyalarni qabul qilish jarayonining vaqt talab etishi hisobiga yalpi omillar samaradorligi o'sishining sekinlashishi va uning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasining kamayishi kuzatildi. Jumladan, 2018-yilda yalpi omillar samaradorligi iqtisodiy o'sishni 2,8 foiz bandga tezlashtirgan bo'lsa, 2024-yilda uning iqtisodiy o'sishga ta'siri 0,9 foiz bandgacha pasaydi.



Ushbu sharoitda iqtisodiy o'sish manbalarini kengaytirish, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash hamda iqtisodiyotda kapital qaytimi, tarmoqlar va sohalarda foyda ko'lamini oshirishda yalpi omillar samaradorligini faollashtirish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur jarayonda yalpi omillar samaradorligi iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi sifat ko'rsatkichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Yalpi omillar samaradorligi mehnat va kapital resurslarining ko'payishidan tashqari, ulardan foydalanish samaradorligi, texnologiya darajasi, boshqaruv va tashkil etish sifatini o'zida mujassam etgan kompleks indikator hisoblanadi. Shu bois investitsiyalar hajmining o'sishi qisqa va o'rta muddatda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatli barqaror o'sishga erishishda iqtisodiyotda ishlab chiqarishning texnologik va institutsional asoslarini mustahkamlashda yalpi omillar samaradorligi o'sishini faollashtirish muhim hisoblanadi.

Yalpi omillar samaradorligi dinamikasiga ta'sir etuvchi omillardan institutsional muhit, raqobat muhiti, investitsiya muhiti va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi, bandlik tarkibi hamda texnologiyalarning qabul qilinishi muhim o'rin tutadi. Xususan, iqtisodiy erkinlik darajasining oshishi mulk huquqlarining himoyasi, biznes yuritish sharoitlarining yaxshilanishi, bozorlarga kirish to'siqlarining kamayishi, savdo va investitsiya erkinligining kengayishi orqali korxonalar samaradorligini oshiradi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga investitsiyalar va innovatsion faollikning kuchayishi ish jarayonlarini optimallashtirib, resurslar taqsimotini samaraliroq qiladi hamda ishlab chiqarishda texnologik yangilanish sur'atini tezlashtiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotlarda yalpi omillar samaradorligini faollashtiruvchi omillarni tadqiq etishda innovatsiya va texnologiyalar, inson kapitali va mehnat sifati, institutsional muhit va bozor erkinliklari, resurslar taqsimoti va tarkibiy omillar, iqtisodiyotning ochiqqligi hamda investitsiya tarkibiga e'tibor qaratiladi. Texnologik taraqqiyot va innovatsiya faoliyati yalpi omillar samaradorligining eng muhim manbalari qatoriga kiradi. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari natijasida yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish usullari va texnologik yechimlar paydo bo'ladi. Bu esa korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytiradi, mahsulot sifatini oshiradi va samaradorlikni yuksaltiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari esa ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, ta'minot zanjirini optimallashtirish, ma'lumotlar bilan ishlash tezligini oshirish orqali samaradorlik o'sishiga xizmat qiladi.

Edkvist va Xenrekson tadqiqotida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yalpi omillar samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ushbu omillar turli transmissiya yo'llari orqali yalpi omillar samaradorligiga ta'sir qilishini aniqlagan. Ushbu tadqiqot natijalari axborot va aloqaga yo'naltirilgan investitsiyalarning yalpi omillar samaradorligiga ta'siri institutsional muhit, raqobat, kadrlar salohiyati va korxonalarning innovatsiyalarni qabul qilish qobiliyatiga bog'liqligini ko'rsatadi [1].

Yalpi omillar samaradorligining o'sishida inson kapitali muhim omillardan hisoblanib, texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, innovatsiyalarni qabul qilish hamda boshqaruv qarorlarining sifati bevosita kadrlar malakasiga, ta'lim darajasiga va mehnat resurslarining tarkibiga bog'liqdir. Xususan, oliy ta'lim darajasining ortishi yalpi omillar samaradorligining o'sishi bilan bog'liqligini aniqlagan. Bunda yuqori malakali ishchi kuchi ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirsa, iqtisodiy bandlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi innovatsion faollikni, tadqiqot salohiyatini va texnologiyalarni o'zlashtirish tezligini rag'batlantirishini baholagan [2]. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda Kubas, Ravikumar va Ventura tadqiqotlarida mehnat resurslari sifatining yalpi omillar samaradorligiga ta'siri tadqiq etilgan [3].

Institutsional omillar mulk huquqi, shartnomalar ijrosi, raqobat qoidalari, bozorlarga kirish to'siqlari, tartibga solish yuki va korrupsiya darajasi kabi omillar orqali resurslarning taqsimlanishi hamda biznes qarorlari sifatini belgilaydi [6]. Byornskov va Foss iqtisodiy erkinlik va tadbirkorlik faoliyatining yalpi omillar samaradorligiga ta'sir etish yo'nalishlarini tadqiq etgan [4].

Sekeyra, Santos va Ferreyra-Lopesh tadqiqotlarida daromadlar tengsizligi va inson kapitalining yalpi omillar samaradorligiga ta'siri aniqlangan bo'lib, tengsizlik yuqori bo'lgan iqtisodiyotlarda inson kapitaliga investitsiya qilish imkoniyatining cheklanishi, talab tarkibining siljishi hamda ijtimoiy mobillikning pastligi kabi omillar orqali yalpi omillar samaradorligi o'sishini cheklashi mumkinligi ko'rsatib berilgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yalpi omillar samaradorligi mehnat va kapital samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, mamlakatda texnologik rivojlanish darajasini aks ettiradi. Texnologik rivojlanishni Solou qoldig'i orqali ifodalash mumkin. Bunda Solou qoldig'i kapital va ishchi kuchining yalpi samaradorligini ko'rsatadi va uni quyida keltirilgan formula asosida aniqlash mumkin:



$$TFP_t = \frac{GDP_t}{K_t^\alpha \cdot L_t^{1-\alpha}} \quad (1)$$

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotida yalpi omillar samaradorligi (TFP)ga ta'sir etuvchi iqtisodiy va institutsional omillar empirik jihatdan baholandi. Tadqiqotda mustaqil o'zgaruvchilar sifatida institutsional muhit, investitsiya faolligi, mehnat bozori va texnologik transformatsiyani ifodalovchi ko'rsatkichlar tanlandi. Xususan, institutsional muhitni ifodalovchi iqtisodiy erkinlik indeksi (IEF), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI), ilmiy-tadqiqot sohasidagi bandlar soni (employment), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar (ICT) tanlab olindi. Shuningdek, institutsional muhitdagi o'zgarishlar va islohotlar ta'sirini hisobga olish maqsadida fiktiv o'zgaruvchining (dummy) yalpi omillar samaradorligiga ta'siri aniqlandi.

$$TFP_t = \beta_0 + \beta_1 IEF_t + \beta_2 FDI_t + \beta_3 employment_t + \beta_4 ICT_t + \beta_5 dummy_t \quad (2)$$

Vaqt qatorlari ma'lumotlarida regressiya modelining koeffitsiyentlarida soxtalik xavfini kamaytirish maqsadida barcha o'zgaruvchilar statsionarlik testlariga tekshirildi. Statsionar bo'lmagan qatorlar mavjud bo'lishi mumkinligini inobatga olgan holda, o'zgaruvchilar o'rtasida uzoq muddatli o'zaro aloqadorlik mavjudligini tekshirish maqsadida kointegratsiya tahlili amalga oshirildi. Xususan, Engl–Grenjer testi asosida baholangan regressiya qoldiqlarining statsionarligi tekshirildi. Qoldiqlarning statsionar chiqishi kointegratsiya mavjudligini ifodalaydi. Shuningdek, tuziladigan modelda mustaqil o'zgaruvchilar ikki va undan ortiq bo'lgan sharoitda Yoxansen testlari orqali ham kointegratsion aloqalar soni va barqarorligi baholanishi mumkin.

Kointegratsiya sharoitida uzoq muddatli koeffitsiyentlarni ishonchli baholash uchun to'liq mukammallashtirilgan oddiy eng kichik kvadratlar usuli qo'llanildi. Ushbu usul endogenlik va qoldiqlardagi avtokorrelyatsiya ta'sirini yumshatish orqali koeffitsiyentlarning barqaror va ishonchli baholanishini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda islohotlar o'tkazilishi natijasida qulay biznes muhiti va investitsion jozibadorlik yaratilishi muhimdir. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar natijalarini iqtisodiy erkinlik indeksi orqali kuzatish mumkin. O'zbekiston uchun iqtisodiy erkinlik indeksi 1998-yildan buyon hisoblab kelinmoqda. 1998-yilda O'zbekiston iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha 31,5 ballga ega bo'lib, dunyo mamlakatlari bo'yicha o'rtacha iqtisodiy indeksdan 25,7 ballga kam bo'lgan. Iqtisodiy erkinlik indeksida O'zbekiston uchun berilgan ball 2005–2007-yillarda sezilarli darajada ko'tarilib, 2007-yilda 52,3 ga teng bo'lgan va dunyo mamlakatlari bo'yicha o'rtacha bahodan farqi 8,6 ballni tashkil qilgan.

2017-yildan iqtisodiyotni liberallashtirish boshlanishi va iqtisodiyotda islohotlar o'tkazilishi natijasida iqtisodiy erkinlik indeksi 52,3 ballni tashkil etib, 2016-yildagi qiymatidan 6,3 ballga yuqorilganini ko'rish mumkin. So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiy erkinlik indeksi balli oshib borayotganligi kuzatilmoqda. 2022-yilda O'zbekiston uchun iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha berilgan baho 55,7 ni tashkil qilib, dunyo mamlakatlari bo'yicha o'rtacha bahodan 4,3 ballga kam ekanligi qayd etildi. O'zbekistonda iqtisodiy erkinlik bahosi dinamikasiga e'tibor qaratilsa, 2022-yildagi bahoning 1997-yildagi dunyo bo'yicha o'rtacha bahodan farqi 6 barobarga, 2016-yildagi farqdan esa 3,5 barobarga kamayganligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiy erkinlik indeksi dinamikasi¹

1 www.heritage.org "Meros" (Heritage Foundation) jamg'armasining rasmiy sayti



2022-yilda iqtisodiy erkinlik indeksi bahosi bo'yicha O'zbekiston 177 davlat ichida 117-o'rinda bo'lib, iqtisodiy erkinlik darajasi bo'yicha Saudiya Arabistoni (118), Hindiston (131), Belarus (135), Tojikiston (147), Turkmaniston (165) kabi mamlakatlardan yuqori o'rinni egalladi.

Yalpi omillar samaradorligini unga ta'sir qiluvchi omillarni vaqt qatorlari ma'lumotlari asosida baholash munosabati bilan dastlab o'zgaruvchilarning vaqtga nisbatan statsionarligi Diki–Fuller bir ildiz testi orqali tekshirildi. Bir ildiz testi natijalariga ko'ra, chet el investitsiyalari va kreditlari, axborot va aloqaga kiritilgan investitsiyalar 5% ahamiyatsizlik darajasida statsionar ekanligi aniqlandi. Qolgan o'zgaruvchilar esa 10% ahamiyatsizlik darajasida ham vaqtga nisbatan nostatsionar ekanligi qayd etildi. O'zgaruvchilarning birinchi ayirmalari bo'yicha esa 1% ahamiyatsizlik darajasida nostatsionarlik gipotezasi rad etildi (1-jadval).

1-jadval. O'zgaruvchilar vaqtga nisbatan statsionarligi bir ildiz testiga tekshirish natijalari²

Variables	H_0 unitary root:			
	Test statistics	1% Critical value	5% Critical value	10% Critical value
tfp_t	-0.286	-2.665	-1.956	-1.609
ief_t	2.057	-2.669	-1.956	-1.608
$employment_t$	0.315	-2.680	-1.958	-1.608
FDI_t	2.537	-2.669	-1.956	-1.608
ICT_t	0.825	-2.665	-1.956	-1.609
Δtfp_t	-4.650	-2.669	-1.956	-1.608
Δief_t	-3.335	-2.674	-1.957	-1.608
$\Delta employment_t$	-4.274	-2.692	-1.960	-1.607
ΔFDI_t	-3.343	-2.674	-1.957	-1.608
ΔICT_t	-5.729	-2.669	-1.956	-1.608

Diki–Fullerning bir ildiz testi orqali statsionarlikka tekshirish natijalari yalpi omillar samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini oddiy eng kichik kvadratlar usuli bilan baholash natijalari ishonchli bo'lmagligini ko'rsatdi. Shu sababli yalpi omillar samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini to'liq mukammallashtirilgan oddiy eng kichik kvadratlar usulidan foydalangan holda baholash zarur bo'ldi.

3-jadvalda ikkita model tuzilgan bo'lib, uning (1) modelida fiktiv o'zgaruvchidan foydalanilmagan. (1) model natijalariga ko'ra, chet el investitsiyalari va kreditlari kutilayotgan bahoga ega bo'lmaganligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, boshqa mustaqil o'zgaruvchilar kutilayotgan bahoga ega bo'lishiga qaramay, ular 10% ahamiyatsizlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanligi aniqlandi.

(2) model natijalariga ko'ra baholangan koeffitsiyentlar kutilgan natijani berganini ko'rish mumkin. Bu yalpi omillar samaradorligiga ta'sir etuvchi barcha o'zgaruvchilar yalpi omillar samaradorligi bilan to'g'ri bog'liqlikka ega bo'lishi lozimligini anglatadi va modelda baholangan koeffitsiyentlar ham aynan shunday natijani ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, (2) modelda fiktiv o'zgaruvchi ta'siriga ko'ra, 2015-yildan boshlab yalpi omillar samaradorligi trendidagi siljish statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Ilmiy tadqiqot sohasida band bo'lganlar soni va iqtisodiy erkinlik indeksining yalpi omillar samaradorligiga ta'siri 5% ahamiyatsizlik darajasida ham statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi qayd etildi. Chet el investitsiyalari va kreditlari, axborot va aloqaga kiritilgan investitsiyalar esa 10% ahamiyatsizlik darajasida statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatmoqda. Demak, ilmiy tadqiqot sohasida band bo'lganlar sonining ming kishiga ko'payishi yalpi omillar samaradorligini o'rtacha 2,4% ga oshirishga olib keladi, iqtisodiy erkinlik indeksining 1 ballga oshishi esa yalpi omillar samaradorligini o'rtacha 0,8% ga oshirishi aniqlandi (2-jadval).

2 Muallif ishlanmasi

2-jadval. Regressiya modelining natijalari³

VARIABLES	(1) model	t-statistic	(2) model	t-statistic
dummy	-	-	-0.587***	-19.867
employment	0.012	1.401	0.024***	7.368
IEF	0.004	0.439	0.008**	2.368
FDI	-0.112	-2.831	0.027	1.385
ICT	0.089	1.319	0.017	0.628
C	1.339	4.587	0.415**	2.873
Observation	25	-	25	-
R-squared	0.904	-	0.96	-
F-statistics	28.165	-	-	-

Standart xatolar qavs ichida keltirilgan

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

Yuqorida keltirilgan (2) model natijalariga ko'ra mustaqil o'zgaruvchilarning yalpi omillar samaradorligiga ta'siri aniqlandi. (2) modeldan ta'siri statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lgan omillar chiqarib tashlanmadi. Buning asosiy sababi ularni chiqarib tashlash iqtisodiy erkinlik indeksi va tadqiqotchilar sonining yalpi omillar samaradorligiga ta'siri baholarining siljishiga olib kelishidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2017–2024-yillarda investitsiyalar faolligining oshishi hisobiga iqtisodiy o'sishda kapital omilining hissasi kuchaygan bo'lsa-da, yalpi omillar samaradorligining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi pasayish tendensiyasini namoyon etdi. Tadqiqot natijalari uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda institutsional va tarkibiy islohotlarning amalga oshirilishi yalpi omillar samaradorligining faollashishiga olib kelishini ko'rsatmoqda. Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, institutsional o'zgarishlar natijasida iqtisodiy erkinlik indeksining 1 ballga oshishi yalpi omillar samaradorligini o'rtacha 0,8% ga oshiradi hamda iqtisodiy real va potensial YAIM o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa davlat tomonidan iqtisodiyotda islohotlar davom ettirilishi texnologik rivojlanishni faollashtirib, mamlakatda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash imkoniyatini berishini anglatadi. Shu sababli O'zbekistonda uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlash uchun kapital jamg'arilishining yuqori o'sish sur'atlari bilan bir qatorda institutsional islohotlar va innovatsion salohiyatni kuchaytirish orqali yalpi omillar samaradorligi o'sishini faollashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Edquist H., Henrekson M. Do R&D and ICT affect total factor productivity growth differently? //Telecommunications Policy. – 2017. – T. 41. – №. 2. – S. 106-119.
2. Liu J., Bi C. Effects of higher education levels on total factor productivity growth //Sustainability. – 2019. – T. 11. – №. 6. – S. 1790.
3. Cubas G., Ravikumar B., Ventura G. Talent, labor quality, and economic development //Review of Economic Dynamics. – 2016. – T. 21. – S. 160-181.
4. Bjørnskov C., Foss N. J. Do economic freedom and entrepreneurship impact total factor productivity?. – 2010.
5. Sequeira T. N., Santos M., Ferreira-Lopes A. Income inequality, TFP, and human capital //Economic Record. – 2017. – T. 93. – №. 300. – S. 89-111.
6. Sobieraj J., Metelski D. Economic determinants of total factor productivity growth: The Bayesian modelling averaging approach //Entrepreneurial Business and Economics Review. – 2021. – T. 9. – №. 4. – S. 147-171.
7. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy sayti
8. www.heritage.org "Meros" (Heritage Foundation) jamg'armasining rasmiy sayti

3 Muallif ishlanmasi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>